

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining Ekologik va energiya SIYOSATI

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) O‘zbekistonning eng yirik milliy aloqa operatori sifatida butun mamlakat bo‘ylab keng ko‘lamli telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi. UZTELECOM™ savdo belgisi ostida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan telekommunikatsiya tarmog‘idan foydalanadi.

Kompaniya xalqaro telekommunikatsiya tashkilotlari, jumladan, Xalqaro elektraloqa ittifoqi (XEI), Aloqa sohasidagi mintaqaviy hamdo‘stlik (ASMH) va “Intelsat” yo‘ldoshli aloqa tashkiloti bilan faol hamkorlik qiladi, xalqaro loyihalarda ishtirok etadi va xorijiy telekommunikatsiya operatorlari hamda uskunalar ishlab chiqaruvchilar bilan aloqalarni rivojlantiradi.

Ushbu Siyosat atrof-muhit muhofazasi, resurslardan oqilona foydalanish, biologik hilma-hillikni saqlash, ekotizimlarni himoya qilish, energiya samaradorligini oshirish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishlarida Kompaniyaning majburiyatlarini belgilaydi.

Kompaniya barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilgan holda, faoliyatining atrof-muhitga ta‘sirini kamaytirish, energiya tejamkorligini oshirish, atrof-muhit muhofazasi va energiya samaradorlik boshqaruv tizimlarini doimiy takomillashtirishga intiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, energiyani tejash sohasidagi asosiy strategik maqsadlariga erishish uchun Kompaniya quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilangan:

- Energiya sarfini tahlili natijalariga asosan kam energiya sarflaydigan uskunalar va texnologiyalarni joriy etish hamda energiya samaradorligiga ta‘sir qiluvchi mahsulot va xizmatlarni xarid qilish orqali energiya samaradorligini oshirish;
- Muqobil qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish, korporativ avtoparkda elektr va gibrid transport vositalariga o‘tish orqali uglevodorod izlarini kamaytirish;
- Chiqindilarni qayta ishlash, minimallashtirish va utilizatsiya qilish dasturlarini joriy etish orqali chiqindilarni boshqarish tizimini rivojlantirish;
- Atrof-muhit muhofazasi va energiya samaradorligini muntazam baholash, qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish va manfaatdor tomonlarga ochiq hisobotlar taqdim etish;

Ushbu Siyosatni amalga oshirish uchun yuqori boshqaruv quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- atrof-muhit muhofazasiga doir xavf-xatarlarni kamaytirish, shu jumladan texnologik chiqindilarni boshqarish va barqaror xizmatlar ko‘rsatish orqali atrof-muhitni asrash;
- atrof-muhit muhofazasi, energiya samaradorligi, iste‘moli va foydalanishiga oid qonunchilik hamda ixtiyoriy majburiyatlarga rioya qilish;
- atrof-muhit muhofazasi va energiya samaradorlik maqsadlarga erishish uchun zarur axborot va resurslarni ta‘minlash;
- energiya tejamkor mahsulot va xizmatlarni xaridini rag‘batlantirish hamda loyihalarni ishlab chiqishda energiya samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qo‘llash;

- atrof-muhit muhofazasi va energiya samaradorlik ko'rsatkichlarni muntazam tahlil qilish, boshqaruv tizimlarini va ularning natijadorligini doimiy takomillashtirish;
- Kompaniyaning atrof-muhit muhofazasi va energiya samaradorligi bo'yicha shaffof hisobotlarni taqdim etish va manfaatdor tomonlar bilan ochiq muloqotni ta'minlash.

Mazkur siyosatda Kompaniyaning maqsadlarini belgilash va ularga erishish bo'yicha keyingi harakatlarni amalga oshirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Siyosat Kompaniyaning <http://uztelecom.uz> veb-saytida va "O'zbektelekom" AKning <http://docs.uztelecom.uz> hujjatlar portalida joylashtirilgan.